TOSHKENT SHAHRI YAKKASAROY TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 22-noyabr | 312-14-207-Q/24 | Yakkasaroy tumani hokimligi

Yakkasaroy tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish bo‘yicha 2025-yil uchun ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholini bandligi to‘g‘risida” Qonunining 38-moddasi, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 8-, 25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom hamda “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun Yakkasaroy tumanida 2025-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Yakkasaroy tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga, 2025-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (keyingi o‘rinda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb

yuritiladi) uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori (2-ilova) xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha **501 ta** ish o‘rni tashkil etilganligi inobatga olinib, har bir korxona va tashkilotlarning shtat jadvalidan kelib chiqqan holda 10% miqdorigacha belgilansin.

Jumladan:

- 14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 12% (61 ta);

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 68% (341ta);

- safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari - 6,0 % (28ta);

- nogironlar mavjud fuqarolar uchun 5,5% (25ta);

- pensiya oldi yoshdagi shaxslar uchun 6,5% (33 ta);

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanishdan ozod qilingan shaxslar uchun 1,1 % (6 ta);

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj, shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan, odam savdosi qurbonlari uchun 0,1% (1 ta);

- Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun 2% (9 ta).

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalari uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga egaligi; umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiqligi; safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun ularning professional tayyorgarligiga mosligi; nogironligi mavjud fuqarolar uchun mehnat sharoiti bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimlarga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqlarsiz bajarish imkonini beradigan; pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malaka talab etmaydigan; jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga

koʻra tibbiy yoʻsindagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun ularning kasbiy tayyorgarligiga mos boʻlgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan; odam savdosi qurbonlari uchun ularning kasbiy tayyorgarligiga mos boʻlgan yoki maxsus malaka talab etilmaydigan.

4. Quyidagi ish oʻrinlari band qilib qoʻyiladigan kasblar va lavozimlar etib belgilansin:

muhandis, iqtisodchi, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, oʻqituvchi, tarozibon, elektr va avtoarava haydovchisi, tashuvchi, farrosh, oʻt yoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bogʻbon, qorovul.

5. 2-ilovada qayd etilgan korxona va tashkilot muassasalarining rahbarlariga:

“Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida koʻrsatilgan ish oʻrinlari tashkil etilishi taʼminlansin;

2025-yil boshlanishiga kamida 10 kun oldin, zaxiraga qoʻyiladigan umumiy ish oʻrinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qoʻyilishini va tayyorligi taʼminlansin, shuningdek, bu haqida yil boshlangunga qadar tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimini xabardor qilinsin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish oʻrinlarining qolgan qismini zaxiraga qoʻyish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2025-yilning birinchi choragi mobaynida taʼminlansin, bu haqida Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimini birinchi chorak yakuni bilan 10 kundan kechiktirmay xabardor qilinsin;

har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimiga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl boʻyicha axborot taqdim etilsin.

6. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash boʻyicha ushbu qaror bajarilmagan taqdirda, shuningdek, bunday shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan maʼmuriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi(Sh.Baxromov):

ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilot, korxona va muassasalarga har bir xodim uchun 12 oy davomida bazaviy hisoblash miqdorining 2 barobari miqdorida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan haq to‘lanishi ta’minlansin; mazkur qarorni besh kun muddatda zaxira ish o‘rin yaratayotgan tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazilsin hamda ushbu qarorni bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatilsin.

8. Tuman hokimining Matbuot kotibi-axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (O.Nasimov): mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga tegishli tartibda joylashtirilishi ta’minlansin.

9. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvar kunidan kuchga kirishi belgilansin.

10. Yakkasaroy tumani hokimining 2023-yil 18-dekabrdagi “Yakkasaroy tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2024-yilga ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida” 231-14-207-/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Shamsiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **N.A. Allabergenova**

Yakkasaroy tuman hokimining
2024-yil 22-noyabrdagi
312-14-207-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Yakkasaroy tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025-yil uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash bo‘yicha maxsus komissiya

TARKIBI

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
		Maxsus komissiya raisi
1.	N.Shamsiyev	Yakkasaroy tumani hokimining birinchi o‘rinbosari
		Maxsus komissiya a’zolari
2.	A.Murodov	Yakkasaroy tumani IIO FMB boshlig‘i
3.	Sh.Baxromov	Yakkasaroy tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i
4.	U.Maxamadaliyev	“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori
5.	B.Xudoyqulov	Yakkasaroy tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
6.	A.Nazarov	Yakkasaroy tumani hokimligi bosh yuriskonsulti
7.	Sh.Niyazbekov	Yakkasaroy tumani Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi bo‘lim boshlig‘i
8.	T.Yeshmetov	Yakkasaroy tumani Mudofaa bo‘lim boshlig‘i
9.	J.Taxirov	Yakkasaroy tumani Ijtimoiy moslashtirish markazi rahbari

Yakkasaroy tuman hokimining
2024-yil 22-noyabrdagi
312-14-207-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Yakkasaroy tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bo‘yicha 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha

MANZILLI JADVAL

T/p	Topshiriq belgilangan korxona nomi	Korxonani INN raqami	Korxonada ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan:								
					14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning otaonalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	Muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Oda m savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun hujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun
1	“O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika qon quyish markazi” Dm	303416071	260	8	2	3		1	1				1
2	“Best Color Textile” MChJ	302360421	250	10	3	2	1	1	1	1			1
3	Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti	201095256	761	22	2	14	1	2	2				1
4	Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti akademik litseyi	202452562	60	4		2	1		1				
5	“Toshkent davlat pedagogika universiteti akademik litseyi” dm	300500113	67	3		2			1				
6	“Yakkasaroy tumani Obodonlashtirish boshqarmasi” Dm	200637815	315	27	5		2	3	7	5	1		4

7	O‘zbekiston respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi huzuridagi atrof muhitni muhofaza qilish sohasida ixtisoslashtirilgan analitik nazorat markazi	200625237	52	3	1	1			1				
8	“Baraka dori farm” MChJ XK	303389351	189	5	1	3	1						
9	Yakkasaroy tumani Tibbiyot birlashmasiko‘p tarmoqli Markaziy poliklinika statsionar qismi bilan	205664264	334	10	3	5		1	1				
10	1-son shahar Ruhiy-asab kasalliklari dispanseri	201190559	252	8	2	4		1	1				
11	Shahar 3-son yuqumli kasalliklar klinik shifoxonasi	201019657	220	16	3	8	2	1	2				
12	60-son oilaviy poliklinika	203407774	80	6	1	4			1				
13	“Apiгекs” MChJ	204608594	83	5	1	2	1		1				
14	“Betlis Tekstil” MChJ	300738156	200	8	3	2	1	1	1				
15	“Full cotton” mchj	302614831	135	8	3	1	1	1	1				1
16	United distribution MChJ	207094349	349	30	2	22	2	2	2				
17	Coscom MChJ	201788904	1961	126	12	103	10	1					
18	“Mega Trade Communication” MChJ	300983368	120	6	1	4	1						
19	“Grand mir” MChJ	204141924	61	3	1	1			1				
20	48-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203521848	88	4	1	2			1				
21	127-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203712474	107	6	1	4			1				
22	91-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	204119284	127	6	1	4			1				
23	118-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203603372	65	4	1	2	1						

24	160-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203463746	120	6	1	3		1	1				
25	73-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203471372	28	1		1							
26	319-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	203603389	69	4	1	2			1				
27	Ayiqcha nomli 100-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	300811841	51	3	1	1			1				
28	Sitora nomli 132-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	300812871	29	1		1							
29	Fayzli-nur nomli 155-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	300812928	20	1	1								
30	Tabassum nomli 58-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	300811690	35	1		1							
31	Laylakcha nomli 300-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	300813048	38	2	1	1							
32	Nurli kelajak nomli 369-sonli maxsuslashtirilgan maktabgacha ta’lim muassasasi	300813404	61	3	1	1			1				
33	25-sonli alohida ta`lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab	203507641	75	2		2							
34	“Rtf Fashion Retail” MChJ	306940456	352	30	2	25		3					
35	“Havas Food” MChJ	305645847	2926	109	1	104	2	2					
36	“Sedat Trico Tekstil” XK MChJ	206428366	57	5	1	1		1	1				1
37	“Toshkentboshplanliti” DUK	200624959	135	5	1	3	1						